

Abdulla Oripovning “Onajonim she’ri tahlili”

*Sulaymonova Charos
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o’zbek tili va
adabiyoti universiteti 3 - kurs
talabasi
...@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Oripovning “Onajonim” she’ri ilmiy va badiiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek shoirning lirik hissiyotlari asosida yuzaga kelgan poetik lavhalar asarning jozibasi va asar tiliga badiiy orginallik bag‘ishlagan. Ilmiy jihatdan she’rning tarixiy va ijtimoiy xususiyatlari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Ona, shoir, she’r, bola, mehr, muhabbat.

Abstract: The article analyzes Abdulla Oripov's poem "My Mother" from a scientific and artistic point of view. Also, the poetic scenes created on the basis of the poet's lyrical feelings gave the charm of the work and artistic originality to the language of the work. Scientifically, the historical and social features of the poem were discussed.

Key words: Mother, poet, poem, child, love, love.

“Necha kunki yo‘q oromim...” nomli jumlalar bilan boshlanuvchi she’rda O‘zbekistonning buyuk shoiri Abdulla Oripov onasining xotirasiga bag‘ishlab yozgan ajoyib lirik asar hisoblanadi. Undagi falsafiy idrokning va ichki tasviriy ifoda uyg‘unligining nozik obrazi ona timsolida lirik qahramonning muhabbatini ifodalab turadi.

*Necha kunki yo‘q oromim
Kelolmayman hushimga.
Onajonim kechalari
Kirib chiqar tushimga.¹*

She’riy lavhada shoirning armoni va qalbining tub-tubidagi og‘riqlarini ifodalovchi poetik ko‘zgu ruhiyat tasvirini tushga ko‘chiradi. Kiyingi to‘rtlikda esa lirik qahramonning qalbida avaylagan bir insonning ruhiy ko‘rinishi namoyton bo‘ladi. Shu o‘rinda dog‘istonlik shoir Rasul Hamzatovning “Ona tili” she’ridagi shoirning tushid o‘lib qolishi bilan, Abdulla Oripovning onajon she’rida ham ruhiy o‘xshashlik borligi kishini o‘ziga tortadi.

Birinchidan ikki shoirining ham she’rlarining sarlavhasida ona so‘zi borligi, ikkinchidan ikki she’r ham qiymati jihatdan bir-biridan qolishmasligi bilan

¹ Oripov A. Onajonim she’riyat: She’rlar va doston. – T.: “Sharq” 2004. B. - 35

izohlanadi. Bu ikki shoirda ham tush paytida sodir bo‘lgan tasavvur hosilasini, she’r sifatida qog‘ozga muhrlashga turtki beradi.

Ilmiy jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak“...tush ko‘rish — uyquda sodir bo‘ladigan subyektiv psixik hodisa. Fiziologik jihatdan tush bosh miya katta yarim sharlarining tormozlanmagan hujayralari faoliyati natijasida vujudga keladi. Tushda uyqudagagi kishi aniq va tasvirli kechinmalarning shohidi bo‘ladi”². She’r davomida haqiqatdan onasining tuhsga kirishi va bu o‘sha mash’um, kunni shohidi bo‘lganligidan so‘ng yozilgan, shoирга taskin va tasalli beradigan yodgorlik kabi bo‘lib qoladi.

Shoирning tushiga keladigan bo‘lsak: “Agar o‘lgan odam tushda kimgadir ko‘rinsa va bu o‘lgan odam tabiiy ravishda o‘z faoliyatini amalga oshirib, hayotini davom ettirsa, bu tush egasining to‘g‘ri yo‘ldan ketayotganidan dalolat beradi va bu yo‘lning oxiri muvaffaqiyat, o‘z maqsadiga erishishdir”³-deb izohlanadi.

She’r davomida Oripov yoshlik chog‘laridagi onasining mehribonchiligini eslaydi. So‘ng zudlik bilan bo‘lib o‘tgan bir musibat gavdalanadi.

*Qaylargadir yuguraman,
 Fig ‘onimdan chiqar dud.
 Yig ‘lama, deb qo ‘llarimga
 Tutqazarlar so‘ng tobut.*⁴

Tragediyaning davomi sifatida real fojianing estetik ifodalanishi, kishi ko‘ngliga og‘ir tasir qiladi. Uch bo‘limdan iborat she;rning birinchi bo‘limi shunday musibat biloan yakun topadi. Lirik qahramon esa mislsiz istirob girdobiga mahkum bo‘ladi. Ikkinchchi bo‘lim esa ona mehri va ona jasorati gavdalantirilgan qaynoq satrlar bilan boshlanadi. Onasini yo‘qotishdan ko‘ra o‘z orzularidan voz kechishni o‘ylagan shoир, onasining orzu umidlari amalga oshib, xonadonida to‘y bo‘lgani va nafaqat o‘zining balki shoир o‘g‘lining ham orzusi amalga oshganini bayon etib, tragik she’riy lavhani yanada balandroq darajaga ko‘taradi.

*Balki sening qabring uzra
 Ko`karganda gul, chechak,
 Ostonamga qadam qo `yar,
 Sen istagan kelinchak.*⁵

She’r onaning lirik qahramon hayotidagi o‘rnini va orezularini bayon qilish orqali, asarning qolgan qismiga ohang beradi. Oripov onaning fidoyiligi yorqin ta’riflar

² “Tush (psixologiya)” O‘zME. T-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

³ Ibn Siriin. Tush tabirlari 2001 [Internet resursi] <https://uz.interpret-dreams-online.com/Tirik-o%27lik-haqidagi-tushning-talqini/>

⁴ Oripov A. Onajonim she’riyat: She’rlar va doston. – T.: “Sharq” 2004. B. - 35

⁵ Oripov A. Onajonim she’riyat: She’rlar va doston. – T.: “Sharq” 2004. B. - 36

bilan ifodalab, uning hayotdagi qiyin lahzalarda tasalli va madad manbai sifatidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

*Esimdadir, titrar edim —
 G‘amgin, bolish pastida.
 Kitobimni ko‘rdim nogoh
 Boshginangning ostida.*

*Toshday qotdim o‘shal oni
 Bor toqatdan ayrilib.
 — Shoir o‘g‘lim, — deding menga
 Sekingina qayrilib.⁶*

Uchinchi bo‘limning poetik lavhasi yuqoridagi baytlar bilan boshlanadi. O‘z farzandining she’riy kitobini asrab avaylash va insonni qadrlash tuyg‘ulari orqali qo‘liga olgan ona obrazi bu sunyodagi eng go‘zal obrazlardan biri hisoblanadi. Poetik lavhaning teran falsafiy orginallaigi ham shu sodda barkamol satrlarda anglashiladi

She’rning diqqatga sazovor jihatlaridan biri Oripovning ona-bola munosabatlarining murakkabligini aks ettirganligidir. U bu bog‘lanishning nozik tomonlarini o‘rganib, onani ham mehr timsoli, ham cheksiz muhabbat manbai sifatida ko‘rsatadi. Bu ikkilik she’rga teran mulohazaning orginal qo‘shilmasidek ko‘rinadi.

Shoir she’r so‘ngida onasiga ehtirom ko‘rsatadi. Uni qanchalik yaxshi ko‘rishini sof va sodda satrlar bilan ifodalab beradi. Bu esa shoirning xalq qalbiga kirib borishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

*Dilda neki jur’atim bor,
 Dilda neki hayajon,
 Bari, bari senga bo`lsin,
 Senga bo`lsin, onajon.⁷*

Oripov butun she’r davomida onaning kuch-qudrati va matonatini ifodalash uchun kuchli ona obrazidan shunday mohirona foydalanganki, beixtiyor she’rning ta’sir doirasiga tushib qolasioz. U jonli metafora va o‘xshatishlar yordamida ham muloyim, ham shiddatli ayol obrazini o‘zida mujassam etgan, o‘z bolasini himoya qiladigan ayolga xos fazilatlarni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Abdulla Oripovning “Onajon” she’rida ona va bola o‘rtasidagi umuminsoniy rishtalarga ta’sirchan ehtirom ifodalangan. Oripov o‘zining ta’sirchan tili va jonli tasviri orqali onalik mohiyatini butun go‘zalligi va

⁶ Oripov A. Onajonim she’riyat: She’rlar va doston. – T.: “Sharq” 2004. B. - 36

⁷ Oripov A. Onajonim she’riyat: She’rlar va doston. – T.: “Sharq” 2004. B. - 36

murakkabligi bilan qamrab oladi. Bu she'r onalar bergan cheksiz mehr va kuch-quvvatni kuchli eslatuvchi bo'lib xizmat qiladi va uni abadiy va umumbashariy adabiyotga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Tush (psixologiya)" O'zME. T-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Ibn Siriin. Tush tabirlari 2001 [Internet resursi] <https://uz.interpret-dreams-online.com/Tirik-o%27lik-haqidagi-tushning-talqini/>
3. Oripov A. Onajonim she'riyat: She'rlar va doston. – T.: "Sharq" 2004. – 96 bet.